

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI

REFERAT

MAVZU: DARIY TILIDA MONOMODAL FE’LLAR

Tadqiqotda modal so‘zlar va ularning semantik guruhlari, modal fe’llar, monomodal fe’llar o‘rganilgan, monomodal fe’llar haqida batafsil tushuncha berilgan, hamda كوشيدن kôšidan monomodal fe’li misolida tadqiqot yakuniga yetgan.

BAJARDI: Nazarova Afzuna

QABUL QILDI: Alimova Xolida

TOSHKENT – 2014

DARIY TILIDA MONOMODAL FE'LLAR

REJA:

KIRISH

I. Bob. Modallik haqida umumiy tushuncha

1.1. Modal soʻzlar va ularning semantik guruhlar

1.2. Modal fe'llar

II. Bob. Monomodal fe'llar

2.1 Monomodal fe'llar haqida tushuncha

2.2 كوشيدان kôšidan monomodal fe'li

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Vatanimizning kelajagi , xalqimizning ertangi kuni,
mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e‘tibori,
avvalambor, farzandlarimizning unib o‘‘sib, ulg‘ayib,
qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir.
Biz bunday haqiqatni aslo unutmasligimiz kerak.

Islom Karimov

Ona vatanimizning siyosiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarda kun sayin rivojlanib borayotganligi hech kimni ajablantirmasligi tabiiydir. Buning sababi esa ta‘lim sohasining jahon standartlariga olib chiqayotganligidir. Ko‘plab talabalarimiz dunyoning eng rivojlanayotgan mamlakatlarida tahsil olmoqdalar va mukammal kadr bo‘lib yetishmoqdalar. Buning poydevori esa tabiiyki chet tillarini mukammal o‘rganish orqali barpo etiladi.

Sizga ma‘lumki, olamni bilish, bilimdon va raqobatbardosh kadr bo‘lib yetishishda barcha fanlarning o‘z o‘rni bor, lekin bu borada ona tili bizning hayotimizda alohida o‘rinni egallaydi, chunki jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili- bu millatning ruhidir, o‘z tilini yo‘qotgan har qanday millatning o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrardir.

Shu bois, biz ona tilining barcha go‘zalliklaridan bahramand bo‘lishimiz, uning kamalakdek serjilo jozibasidan rohatlanishimiz tabiiy va ayni chog‘da, ona tilimizning go‘zal ifodalarini ko‘z qorachig‘idek avaylab-asrash, uning sha‘ni uchun hamisha kurashishga burchli ekanligimizni sira unutmasligimiz kerak.

O‘‘sib kelayotgan avlod taqdiriga hech kim befarq qaray olmaydi. Bunda Oliy o‘quv yurtlarining ahamiyati kattadir. Yoshlarni qay usulda o‘qitish, ularni tarbiyalash mustaqil mamlakatni yetuk mutaxassislari bolishiga qayg‘urish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bunda Oliy va o‘rta maxsus tizimi, saviyasini jahon asoslari darajasiga yetkazish, xalq xo‘jaligida mutaxassislikka bo‘lgan talab va extiyojlarini ilmiy tahlil asosida aniqlash, xorijiy mamlakatlar foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridandir. Ilm ziyo saloxiyati bu xalqning, vatanning ulkan boyligi, kelajak poydevoridir. Shu sababli ham mamlakatimizda yoshlar ta‘limiga keng e‘tibor berilgan.

Xususan, yoshlarni til o'rganishiga imkon beruvchi qulayliklar, shart-sharoitlar juda ko'p.

Dariy tili Afg'onistonning pushtu bilan bir qatorda turuvchi rasmiy tili hisoblanib, uning tarixi tojik va fors tillari bilan umumiylikka ega va kelib chiqishi o'rta va qadimgi fors tillariga borib taqaladi. Tadqiqotchilar avval dariy tilini forsiy-kobuliy yoki oddiygina kobuliy, afg'oniy-fors, kobuliy-tojik deb nomlashgan. Dariy tili turli dialekt variantlariga ega. U eroniy tillar guruhining janubiy-g'arbiy tarmog'idan kelib chiqqan.¹ Dastlab "saroy tili" deb nom olgan adabiy dariy tili asosida Kobul lahjasi yotadi. Lahjalar ikki guruhga ajratiladi: 1) shimoli-sharqiy Eron lahjalariga yaqin bo'lgan Hirot, Log'ar, Gardeza va Hazarajot lahjalari; 2) tojik tilida gapiruvchilar va janubiy lahjalar bilan ko'pgina kelib chiqish xususiyatiga ega bo'lgan Badaxshon, Panjera, Ko'histon va Kobul lahjalari.

Dariy tilida ancha vaqtdan buyon yaqin aloqada bo'lgan pushtu tilining ta'siri sezilib turadi. Bu ayniqsa uning leksikasi va fonetikasida xarakterlidir. Garchi dariy tilining kelib chiqishi fors-tojik tillariga borib taqalsa-da, o'zining fonetik, leksik xususiyatlari bilan bu tillardan farqlanadi. Dariy tili fors va tojik tillaridek keng o'rganilmagan va tadqiq etilmagan.

Mavzuning dolzarbligi: So'nggi yillarda modallik kategoriyasi o'zbek tilshunosligida ham xorijiy lingvistikada ham keng muhokama qilinmoqda. Shunga qaramasdan modallik va uni ifodalash vositalari masalasi hanuzgacha hal etilmagan muammolardan bo'lib kelmoqda. Hatto nisbatan to'liq tadqiq etilgan, o'rganilgantillar materiallarida modallik muammosining ba'zi jihatlari yetarli darajada yoritilmagandir. Ammo monomodallik kategoriyasi va monomodal fe'llar hali o'zbek tilida va xorijiy tilshunoslikda o'rganilmagan.

Albatta, "har qanday ilmiy muammoning o'rta qo'yilishi va bu sohada tadqiqot ishlarining boshlanishi ma'lum bir tarixiy davr bilan bevosita bog'liq bo'lishi

¹www.krugosvet.ru/enc/gumanitarnye_nauki/lingvistika/DARI.html

shubhasizdir”², chunki tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini bilmay turib, uning hozirgi holatini ilmiy tahlil etib bo‘lmaydi.

Tilda monomodallik kategoriyasining tarixiy qo‘llanilishi va monomodal fe‘llarning turli ma‘nolarni ifodalashi davr o‘tishi bilan o‘zgarib, takomillashib va rivojlanib borishi tabiiy hodisadir. Shu sababli dariy tilida monomodal fe‘llarning qo‘llanilishi, tuzilishi, gapdagi vazifasi va mazmun-mohiyati kabi masalalari ham juda dolzarb hisoblanadi.

Bu sohaga doir izlanishlar, ayniqsa, xorijiy va o‘zbek tillari asosida qilinayotgan tadqiqotlar yetarli emas. Shu sababli mazkur tadqiqot oldimizga qo‘yilgan masalani ma‘lum darajada hal qilishga qaratilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi: Modallik va monomodallik kategoriyasi doim mantiqshunos va tilshunos olimlarning diqqat markazida turgan masalalardan biridir. Yuqorida aytib o‘tganimizdek monomodal fe‘llar tilshunoslikda hali to‘liq yoritilmagan, hattoki ayrim tilshunoslikda umuman yoritilmagan ham. Kamdan-kam tilga olinadigan modal fe‘llar “lug‘atdan grammatikaga qarab yarim yo‘lda” [Xanzen 2006:68] joylashgan deb talqin qilinadi va ko‘pgina tillarda, shuningdek dariy tilida ham ular o‘zining alohida xususiyatiga ega. Faqatgina dariy tilida, bizga nechog‘lik tanish bo‘lmasin, modal fe‘llar hanuz ham maxsus tadqiqot predmeti bo‘lmagan, mualliflarning umumiy tavsiflarida esa, bu fe‘llar chegaralangan uzuq-yuliy fikrlar bilan tilga olingan (masalan, [Дорофеева 1960: 52; Киселева 1985: 85; Миколайчик 1980: 344-347; Пахалина 1964: 58; Farxodiy 1973: 141; Bogdanov 1930: 33-34; Neghat 1969: 35-40;])³.

Fors tilining umumiy tavsiflarida (masalan, [Пейсиков 1959: 304-311; Рубинчик 1960: 82-83; 1970: 830; 2001: 236-237, 426-428; Lambton 1957: 54-57; Lazard 1957: 135-136, 219-220; Phillot 1919: 248-253, 259-260, 266-271]) shuningdek bizga tanish bo‘lgan fors tilida modal fe‘llardan biri haqidagi katta bir maqolada ([Восканян 2005]ga qarang) ham modal fe‘llar birmuncha mufassal ko‘rib chiqilgan. Ammo ularda

² Turniyozov N.Q. Nutq va uning egosentrik xarakteri xususida ba’zi mulohazalar. -Til va nutq sistem-sath talqinida. Samarqand DCHTI, 2005, 21-b

³ Островский Б.Я. Модальные глаголы языка дари М-2008:6

asosiy uchta modal fe'l (lekin eng ko'p qo'llaniladigan خواستن *xâstan* "xohlamok", "istamok", توانستن *tawânestan* "qila olmok", بایستن *bâyestan* "kerak bo'lmoq" fe'llari) haqida so'z yuritilib monomodal fe'llar haqida batafsil to'xtalmagan.

Monomodal fe'llar haqida Б.Я.Островский "Модальные глаголы языка дари" nomzodlik dissertatsiyasida birmuncha kengroq to'xtalib o'tgan. Bizning ishimiz ham shu ish asosiga qurilgan.

I BOB. MODALLIK HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

1.1. Modal soʻzlar va ularning semantik guruhlari

Soʻzlovchining oʻzi bildirgan fikrga, voqea hodisalarga munosabatini ifodalovchi soʻzlar modal soʻzlar deyiladi. Bunday munosabat fikrning aniqligi yoki noaniqligi nuqtai nazaridan boʻladi. Modal soʻzlar morfologik jihatdan yaxlit, yaʼni morfemalarga boʻlinmaydi.

Modal soʻzlar borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyatni anglatmaydi. Shu bilan birga sof grammatik maʼnoni ham anglatmaydi. Bunday soʻzlar bildirayotgan axborotga soʻzlovchining ishonch, gumon, tasdiq kabi munosabatlarni ifodalaydi.⁴ Dariy tilida modal feʼllarning quyidagi maʼnolari bor:

- ✓ Kuchli xohish; *kôšes kardan* “harakat qilmoq”
- ✓ Taklif; *daʼwat kardan* “taklif qilmoq”
- ✓ Ruxsat berish; *ejâza dâdan* “ruxsat bermoq”
- ✓ Qodirlik; *tawânestan* “qila olmoq”
- ✓ Zaruriylik; *majbur šodan* “majbur boʻlib koʻrinmoq”
- ✓ Xohish; *ârzu dâştan* “orzu qilmoq”
- ✓ Kutish; *montazer mândan* “kutmoq”
- ✓ Taqiq; *manʼ kardan* “taqiqlamoq”
- ✓ Tayyorlik; *hazer budan* “tayyor boʻlmoq”
- ✓ Qaror qilish; *tasmim gereftan* “qaroq qilmoq”

او هنور جوان بود، حتماً آرزو داشت در کنار خانواده اش باشد و خود تشکیل خانواده دهد و صاحب فرزندی شود
Ô hanôz jawân bud, hatman ârzu dâšt dar kenâr-e xânawâda-aš bâšad-o taškil-e xânawâda dehad-o sâhib-e farzand-e šawad [AN] U hali yosh edi, oʻz oilasi bilan boʻlishni, oila qurishni va bolalik boʻlishni xohlar edi.

⁴ Hozirgi oʻzbek adabiy tili, Nurmonov A. Toshkent, 2010: 259

Ramazân *montazer mând ke ânhâ nazdik šawand* رمضان منتظر ماند که آنها نزدیک شوند

[XN] Ramazon ular kelgunigacha kutib turdi.

Berâdar-aš man ‘ karda ast ke doxtarak مادرش را ببیند *mâdar-aš râ bebinad* [PP] Uning akasi qizchani o‘z onasi bilan ko‘rishishni man’ qildi
Shuningdek :

- ✓ Xavotirlanish; نکند *nakonad* “Xudo ko‘rsatmasin”
- ✓ Umid; داشتن امید *ommêd dâštan* “umid qilmoq”
- ✓ O‘zgarish; بهتر بودن *behtar budan* “yaxshilanmoq” ma’ nolarga ham egadir.

1.2. Modal fe’llar

Modal fe’llar modal konstruksiyalar tarkibiga ularning modal komponenti sifatida kiruvchi fe’llardir.

Ma’lumki dariy tilida fe’llar miqdori unchalik ko‘p emas. Ular 150 tani tashkil etib, qolgan fe’llar shu 150 ta fe’ldan yasaladi. Xuddi shuningdek modal fe’llar ham juda ozchilikni tashkil etadi. Biz shunday fe’llardan, faqatgina, bir necha o‘ntasini topishga muvaffaq bo‘ldik. *впрочем, не исключена что их несколько больше*

Quyida eng ko‘p ishlatiladigan modal fe’llar keltirib o‘tilgan:

- ✓ خواستن *xâstan* “xohlamok”, “niyat qilmoq” (1)
 - ✓ توانستن *tawânestan* “qila olmoq” (2)
 - ✓ بایستن *bâyestan* “kerak bo‘lmoq” (3)
 - ✓ شایستن *šâyestan* “mumkin bo‘lmoq” (4)
- (1) *Mesl-e in ke mēxâst ċiz-ê ba man begôyad* [QM] U میخواست چیزی به من بگوید (1)
menga nimanidir aytishni xohlayotgandek edi.
- (2) *Doxtar namêtawânad tâ ba âxer-e ‘omr dar* دختر نمیتواند تا به آخر عمر در خانه پدرش بماند *xâna-ye padar-aš bemânad* [QH] Qiz bola umrining oxirigacha ota uyida qololmaydi
- (3) *Tu bâyad sê-ċahâr rôz peyâda berawi tâ ba* تو باید سه چهار روز پیاده بروی تا به سرحد *sarhad berasi* [XN] Sen chegaraga yetib borguninggacha uch-to‘rt kun peyoda yurishing kerak

(4) *Āmer-sâheb, šomâ šâyad fekr konên ke ma az yak xânawâda-ye xarâb astom* (og`zaki uslubda) [AA] Janob boshliq, siz, aftidan, mani qandaydir bir bechora oiladan deb o`ylayapsiz shekilli

Quyida ham modal fe'llar keltirilgan:

- ✓ شدن *šodan* (modal ma'nosi- "ehtimol", "bo'lishi mumkin" (5))
 - ✓ کوشیدن *kôšidan* "harakat qilmoq", "chin dildan urinmoq" (6)
 - ✓ ترسیدن *tarsidan* "qo'rqmoq", "xavotirlanmoq" (7)
 - ✓ گذاشتن *gozâštan* (modal ma'nosi – "ruxsat bermok", "imkon bermok" (8))
 - ✓ ماندن *mândan* (modal ma'nosi – "ruxsat bermok", "imkon bermok" (9))
- (5) *Ammâ xub, či mēšawad kard?* [PP] Mayli, nimayam qilish mumkin?
- (6) *Pas az ân hâdesa har du kôšidand 'âdi jalwa konand* [PP] Bu hodisadan so'ng ikkalasi ham har doimgidek ko'rinishga harakat qilishdi.
- (7) *'Ālem ke mêtarsid daraxš-e ašk râ ba čašmân-aš bebinand, sar-aš râ pâyin mê'dâxt-o labhâ-yaš râ mējawid* [MB] Olim uning ko'zidagi yoshni ko'rib qolishlaridan qo'rqib boshini tushirdi va labini tishladi.
- (8) *Bâd namêgozâšt tâ soxanân-aš ba tawr-e kâmel ba gôš-am berasad* [NA] Shamol tufayli man uni nima deyayotganini eshita olmadim.
- (9) *Walê ân rôz čiz-ê nagoftam, mândam ô gap bezanad* [PP] Lekin men o'sha kuni hech nima demadim, uni gapirishiga qo'yib berdim.

Qolgan modal fe'llar kamdan-kam qo'llaniladi. Bunday fe'llarning uzundan-uzun ro'yxatini keltirish mumkin, ammo ularning to'liq nomlarini keltirish imkonsiz.

Kam ishlatiladigan modal fe'llarga quyidagilar kiradi:

- ✓ واداشتن *wâdâštan* "majbur bo'lmoq"
- ✓ پذیرفتن *paziroftan* "rozi bo'lmoq"
- ✓ سپردن *sopordan* "zimmasiga yuklamoq", "topshirmok",

✓ قبولاندن *qabulândan* “ko‘ndirmoq”, “ijozat bermoq”

✓ شرمیدن *šarmidan* “uyalmoq”

(10) اما نیروی عجیبی او را و امیداشت که حتی لای شاخبرگها را جستجو کند *Âmmâ nayrô-ye ‘ajib-ê ô râ wâmêdâšt ke hattâ lâ-ye šâxbarghâ râ jôstojô konad* [MT] Lekin qandaydir ajoyib bir kuch uni shoxlar va burglar ichidan qidirishga undadi.

(11) نصیبه حتی پذیرفته بود تا به حیث زن دوم در زنده گی من باقی بماند *Nasiba hattâ pazirofta bud tâ ba hays-e zan-e dowwom dar zendagi-ye man bâqi bemânad* [QM] Nasiba hattoki mani ikkinchi xotini bo‘lishga ham rozi bo‘ldi.

(12) به وی سپرداند که چند روزی نزد آنها چوبشکنی کند *Ba way sopordand ke čand rôz-ê nazd-e ânhâ čôbšekani konad* [XN] Ular unga bir necha kun o‘tin yorishni topshirishdi.

(13) دیروز سیاوش با اصرار زیاد به من قبولاند که اجازه بدهم شبی سآب را با خود به خانه ببرد *Dirôz Seyâwüş bâ esrâr-e zeyâd ba man qabulând ke ejâza bedeham šab-ê Sa’âb râ bâ xod ba xâna bebarad* [PP] Kecha Siyovush menga Saabni bir kunga uyga olib ketishga ruxsat berdi.

(14) البته که من هم میشرمیدم و هم میترسیدم که پرسان کنم، این زن چه نسبتی با تو دارد؟ *Albatta ke man ham mêšarmidam-o ham mêtarsidam ke porsân konam, in zan če nesbat-ê bâ tu dêrad* [NA] Albatta men bu xotin unga nisbatan qanadayligini so‘rashga uyaldim va qo‘rqdim.

Modal fe’llarning katta qismi ham adabiy, ham og‘zaki uslubda qo‘llaniladi. Ulardan bir nechtagina faqat adabiy uslubda qo‘llanilsa (masalan, واداشتن *wâdâštan* “majbur bo‘lmoq”, گذاشتن *gozâštan* “ruxsat bermoq” fe’llari), yana bir nechtagina og‘zaki uslubga xos (masalan, ماندن *mândan* -“ruxsat bermoq”).

Ko‘plab modal fe’llar “murakkab fe’llar”dan o‘zining sinonimlariga ega. Masalan, کوشش کردن *kôšesh kardan* “harakat qilmoq”, chin dildan urinmoq” fe’li تلاش داشتن *talâš dâštan* fe’llari bilan sinonimik qatorni tashkil etadi.

Quyida ham dariy tili adabiy uslubida va og‘zaki uslubiga xos bo‘lgan bir nechta modal fe’llarni keltirib o‘tamiz:

تصمیم گرفتن *tasmim gereftan* “qaror qilmoq”

داشتن *dar nazar dâshtan* “niyat qilmoq”, “qilmoqchi bo‘lmoq”
 کرن *kôšeš kardan* “harakat qilmoq”
 حاضر بودن *hâzer budan* “tayyor bo‘lmoq”
 خواہش کردن *x(w)âheš kardan* “so‘ramoq” (kimdandir)
 تقاضا کردن *taqâzâ kardan* “talab qilmoq”, “qat’iy so‘ramoq”
 پیشنهاد کردن *pêšnehâd kardan* “taklif qilmoq” (maslahat ma’nosida)
 توصیه کردن *tawseyâ kardan* “maslahat bermoq”, “tavsiya qilmoq”
 دعوت کردن *da’wat kardan* “taklif qilmoq”
 اجازه دادن *ejâza dâdan* “ruxsat bermoq”
 مجبور کردن *majbur kardan* “majbur qilmoq”
 مجبور شدن *majbur šodan* “majbur bo‘lmoq”
 موفق شدن *mowaffaq šodan* “uddasidan chiqmoq”, “uddalamoq”
 آرزو داشتن *ârzu dâštan* “orzu qilmoq”
 منتظر ماندن *montazer mândan* “kutmoq”
 منع کردن *man’ kardan* “man qilmoq”
 امید داشتن *ommêd dâštan* “umid qilmoq”
 بهتر بودن *behtar budan* “yaxshilanmoq”
 ممکن بودن *momken budan* “mumkin bo‘lmoq”⁵

⁵ Островский Б.Я. Модальные глаголы языка дари М-2008:40-41

II BOB. MONOMODAL FE'LLAR

2.1 Monomodal fe'llar haqida tushuncha

Ko'plab modal fe'llar modallikning ikki asosiy turidan birini ifodalashi mumkin (3.2.2): yoki faqat irreal modallikni (masalan, *kôšidan* “harakat qilmoq”, “chin dildan urinmoq” fe'li), yoki faqat baholovchi modallikni (masalan, *šâyestan* “mumkin bo'lmoq” fe'li):

- (15) *Dar râbeta bâ Terezâ ham mekôšid ehsâsât-aš râ boruz nadehad* احساساتش را بروز ندهد
(16) *Šâyad âsyâbân gandom qarz bedehad* شاید آسیابان گندم قرض بدهد

Shu bilan birga, shunday modal fe'llar ham borki, ular ham irreal modallikni, ham baholovchi modallikni (aniqroq aytsak - epistemicheskiy) ifodalab keladi. *Bâyestan* fe'lini xuddi shunday fe'llar qatoriga kiritishimiz mumkin.

Lekin bu ikki turdagi modal konstruksiyalar grammatik jihatdan hech qanday o'zaro farqqa ega emas. ((24):(25)).

Bulardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, faqat irreal modallikni yoki faqat baholovchi modallikni ifodalovchi modal fe'llar monomodal fe'llar deb atalsa, ham irreallikni va ham baholovchi modallikni ifodalovchi modal fe'llar bimodal fe'llar deb ataladi.

Umuman biz quyida bimodal fe'llar turkumiga kiruvchi to'rtta fe'llarni keltirib o'tamiz:

- ✓ *xâstan* “xohlamoq”, “niyat qilmoq” خواستن
- ✓ *tawânestan* “qila olmoq” توانستن
- ✓ *bâyestan* “kerak bo'lmoq” بایستن
- ✓ *šâyestan* “mumkin bo'lmoq” شایستن
- ✓ *kôšidan* “harakat qilmoq”, “chin dildan urinmoq” کوشیدن
- ✓ *tarsidan* “qo'rqmoq”, “xavotirlanmoq” ترسیدن
- ✓ *gozâştan* (modal ma'nosi – “ruxsat bermiq”, “imkon bermiq”) گذاشتن
- ✓ *mândan* (modal ma'nosi – “ruxsat bermiq”, “imkon bermiq”) ماندن

✓ شایستن *šâyestan* “mumkin bo‘lmoq”

Yuqorida sanab o‘tilgan fe’llar ham modal ma’noda, ham mustaqil ma’noda kelishi mumkin. Bu fe’llar modal ma’noda ko‘p ishlatilib, ulardan biri šâyestan fe’li mahsuldordir. Ushbu fe’llarning ba’zilar faqatgina adabiy uslubga xos bo‘lib, qolganlari ham adabiy, ham og‘zaki uslubda qo‘llanilish imkoniyatiga egadir.

2.2. *kôšidan* fe’li

کوشیدن fe’li (hozirgi zamon shakli – *kôš-*) “harakat qilmoq”, “chin dildan urinmoq” ma’nosini anglatib, faqat adabiy uslubga xosdir va o‘z ma’nosi ((1)-gap) bilan birga modal ma’noda ((2)-gap) ham qo‘llanadi.

زنی که ... به سختی میکوشید اکنون در سن چهل ساله گی شکسته و فرتوت به نظر میرسید. (1)
Zan-ê ke... ba-saxti mêkôšid, oknun dar senn-e čehelsâlagi šekasta-wo fartut ba nazar mêrasid [MT] “Qattiq mehnat qilgan (kuchli harakat qilgan) ayol endigina qirq yoshida siniqqan va zaif bo‘lib qoldi” ;

(2) *Kôšidam pelkhâ-yam râ zeyâdtar begošâyam*
[AN] “Men ko‘zlarimni katta ochishga harakat qildim (qovoqlarni ko‘proq ochmoq)”.

Xuddi modal fe’llar singari bu fe’l ham quyidagi ikki xil shaklda ifodalaniladi.

✓ می کوشم بخوانم *mêkôšam bexânam*

✓ می کوشم بخوانی *mêkôšam bexâni*

***mêkôšam bexânam* shaklidagi modal konstruksiya.**

Bir sub’yektli modal konstruksiyalar tarkibida *kôšidan* modal fe’li biror fe’l zamonida, yetakchi fe’l esa aoristda kelishi adabiy uslubda ko‘p uchraydi.

(3) *Benafša mêkôšad xanda-aš râ dar*
čehra mahâr konad [RM] “Binafsha kulmaslikka harakat qilmoqda”.

Morfologik xususiyati.

Modal ko‘rinishidagi zamon formalari. Ko‘rib chiqilgan konstruksiyalar tarkibidagi *kôšidan* fe’li turli zamon formalariga ega bo‘lib, ular hozirgi-kelasi (3) zamonda; aniq o‘tgan zamon (2) shaklida; o‘tgan zamon davom (4); uzoq o‘tgan zamon I (5)da ifodalanadi:

(4) میکوشیدم *Mêkôšidam harče dêrtar nafas-am râ dar sina-am habs konam* [SZ] “Imkon qadar nafas olmaslikka harakat qilar edim”;

(5) از آن زمان به بعد مادر کلانهای من همه شان کوشیده بودند که تصویرهای شان را در آینه از پا *Az ân zamân ba ba'd mâdar-kalân-hâ-ye man hama-šân kôšida budand ke taswirhâ-yešân râ dar âyina az pâ dar'âwarand, ammâ natawânesta budand* [RZ] “o‘shandan buyon buvim va katta buvilarim oynadi aksini ustidan g`alaba qilishga harakat qilishsada, lekin uddasidan chiqa olishmadi”.

(6) ما مانند مردها کوشیدیم گریه نکنیم *Mâ mânand-e mardhâ kôšidêm gerya nakonêm* [PP] “Man xuddi erkaklardek yig`lamaslikka harakat qildim” .

(7) میکوشد لا اقل این صدا را نشنود *Mêkôšad lâ'aqall in sadâ râ nešenawad* [QM] “U hech bo‘lmaganda shu ovoznı eshitmaslikka harakat qilardi”.

(8) دیگر به مدد دوا و درمان کوشید ترزا را از یاد ببرد *Digar ba madad-e dawâ wo darmân kôšid Terezâ râ az yâd bebarad* [AO] “Keyin u dori darmon yordamida Terezani unutishga harakat qildi”.

(9) میکوشیدند که انگشتهای مرا هم با تبله و هارمونیۀ آشنا سازند و هرچه میدانند، بیدریغ به من بیاموزند *Mêkôšidand ke angosthâ-ye ma-râ ham bâ table-wo hârmôneya âšnâ sâzand-o harče mêdânand, bêderêğ ba man beyâmôzand* [RZ] Ular hech narsani mendan yashirmay barmoqlarimni tablaga va fizgarmoniyaga, shuningdek o‘zlari bilgan barcha narsani o‘rgatishga harakat qilishar edi.

(10) پادشاه کوشید تا هرچه بیشتر گوشه‌ایش را تیز کند *Pâdšâh kôšid tâ harče bêštar gôšhâ-yaš râ têz konad* [AA] Podshoh yanayam yaxshiroq eshitishga harakat qildi.

(11) میکوشد چرتها و خیال هایش را به سوی گپهای دیگر بکشانند و خودش را از این عالم رنج‌آورد *Mêkôšad čorthâ-wo xeyâl-hâ-yaš râ sô-ye gaphâ-ye digar-ê bekašânad-o xod-aš râ az in ‘âlam-e ranj’âwar bêrun bekašad* [QM] U fikrini boshqa narsaga qaratishga va bu og`ir hayotdan chiqib ketishga harakat qilardi.

(12) هر کس میکوشید خودش را به رهبر نزدیک سازد و یاور رهبر گردد *Har kas mêkôšad xod-aš râ ba rahbar nazdik sâzad-o yâwar-e rahbar gardad* [QM] Har bir odam sardorga yaqinlashishga va uning yordamchisi bo‘lishga harakat qilardi.

(13) *Gâdiwân mêkôšad* گادی وان میکوشد حیوان را به زور شلاق وادار به دویدن کند [AO] *Aravakash qamchi bilan otni choptirishga harakat qilardi.*

(14) *Fêrôz mêkôšad xod râ mašğul-e kâ nešân dehad-o čonân bâ kolang mahkam bar zamin mêkôbid ke pesarhâ râ mahw-e nayrô-ye bâzowân-e xod mêkard* [PP] *Firuz oʻzini band qilib koʻrsatishga harakat qilardi va kirka bilan yerga urdiki, bolalar muskullari kuchidan hayratlanishdi*

(15) *Mâdar-am mêkôšad tâ padar-am râ mahkam girad. Ammâ namêšod* [QM] *Onam otamni qattiq ushlab turishga harakat qilardi ammo uddasidan chiqa olmasdi.*

(16) *Ostowâr nešastam-o kôšidam ke negâh-am ba Rabâba nayoftad* [RZ] *Men toʻgriga oʻtirdim va Rababga qaramaslikka harakat qildim.*

(17) *Mêkôšid ba har surat-ê k ast, Nâzô ba in kašidagi-ye meyân-e ânhâ pay nabarad wa bê dağdağ dar cârcôb-e xâna... ba sar barad* [AN] *U Nozi.....*

(18) *Kôšidam sadâ-ye man ham ârâm bâšad* [PP] *Men mening ovozi ham sokin chiqishiga harakat qildim.*

XULOSA

Mazkur ishimizda biz hozirgi zamon dariy tilida modal va monomodal fe'llar, ularning semantik guruhi, qo'llanilishi va matn ichida va matn tashqarisida anglatayotgan ma'nolarini tadqiq qildik. Modal fe'llar bildiralayotgan fikrga so'zlovchining munosabatini ya'ni ishonch, gumon, tasdiq, taklif, zaruriyat, kutish kabi ma'nolarni bildirib matnda ifodalangan fikrga qo'shimcha ma'no yuklaydi. Bu esa ma'noni yanada to'liqroq va ta'sirliroq qilishga, nutqni jozibali qilishga ko'maklashadi.

Modal fe'llar bilan bir qatorda monomodal fe'llar ham hech qanday grammatik ma'noga ega emas.

Dariy tilshunos olimlarining asarlarini o'rganish jarayonida shu narsa aniq bo'ldiki, dariy tili bo'yicha amalga oshirilgan monomodal fe'llar xususidagi ishlar nihoyatda kam bo'lib, o'zbek tilida bunday ishlar ko'rib chiqilmagan, to'liq tadqiq etilmagan.

Xuddi modal fe'llardek monomodal fe'llar qo'llangan gapda asosiy fe'l aoristda keladi.

Monomodal fe'llar matn ichida bir ma'noda, matn tashqarisida boshqa ma'noda qo'llanilib, uning qaysi ma'noda kelayotganini kontekstdan bilish mumkin.

Monomodal fe'llar asosan so'zlashuv uslubiga shu bilan birga adabiy uslubga xos hisoblanib, ulardan ba'zilar nihoyatda kam qo'llaniladi.

Hozirda oldimizga qo'ygan dolzarb vazifamiz dariy tilidagi monomodal fe'llarni aniqlab, ular ustida tadqiqot ishlarini olib borish va ularning ma'noviy guruhlarini, ifodalanishi va o'ziga xos jihatlarini aniqlashdan iboratdir. Ushbu kusr ishida ma'lum miqdorda bu mavzuga oydinlik kiritishga harakat qildik va oldimizga qo'ygan maqsadga erishdik deb o'ylayman.

ILLUSTRATIV MANBA MUALLIFLARI

AA - ‘Âzizollâh ‘Alizâda
AH – Asadullâh Habib
AN - ‘Âzizollâh Nohofta
AO – Akram ‘Osmân
BY – Basir Yaqin
DN – Dastagir Nâyel
ĞB - ‘Abdol-ĞafurBerešnâ
HH - ‘Abdol-Hayy Habibi
HQ – Hâšem Qeyâm
HY – Ğolâm-Haydar Yagâna
JN – Jalâl Nurâni
KM – Karim Misâq
MM – Maryam Mahbub
MT –Mahsâ Tâye‘
NA – Mohammad-Nabi ‘Azimi
NH – Ne‘matollâh Hosayni
PP – Parwin Pažwâk
QH – Qadir Habib
QM – Qâder Morâdi
RF – Rawân Farhâdi
RM –Razzâq Ma’mun
RZ – Rahnaward Zaryâb
SZ – Sopôžmay Zaryâb
ŠW – Mohammad-Šafiq Wejdân
WR - ‘Abdol-Wâhed Rafi’i
XN –Xâled Nawisâ

Nazariy manbalar:

1. Neghad Saidiy . کابل - دستور زبان دری - 1969
2. Дорофеева Л.Н. Язык фарси – кабули. – М., 1960
3. Киселева Л.Н. Очерки по лексикологии языка дари. – М., 1973
4. Фархади Р. Разговорный фарси в Афганистане.-М., 1974
5. Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. –М., 1985
6. Островский Б.Я. Учебник языка дари. – М., 1994
7. Shokirov O. Dariy tili. I-II-T.,2004
8. Островский Б.Я. Модальные глаголы языка дари.- М., 2008

Lug‘atlar:

9. Дари – русский словарь.- М., 1978
10. Персидско – русский словарь. – М., 1983